



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING**  
**Q A R O R I**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2022 - yil 22 - yanvar

39-8-0-Q/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Sho‘rchi tumani “Oqtumshuq” mahallasi hududidan ichki ishlar profilaktika inspektorlari xizmat uylari qurilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan, viloyat Ichki ishlar boshqarmasining 2021-yil 10-iyundagi 3/306-son xati va “Yagona buyurtmachi xizmani” injiniring kompaniyasining 2021-yil 29-oktabrdagi 01-08/2504-son xatini inobatga olib,

**QAROR QILAMAN:**

1. Sho‘rchi tumani “Oqtumshuq” mahallasi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidan qishloq xo‘jalik xaritasining 1334q-dala konturidagi 0,02 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni tuman ichki ishlar bo‘limiga doimiy foydalanish huquqi bilan ichki ishlar organlari tayanch punktlarining profilaktika inspektorlariga xizmat uy-joylari qurilishi uchun ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abduraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqning davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

4. Viloyat Qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarini loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida (surxondaryo.uz) e‘lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Xidirov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyati hokimi**



**Bobolov T.A.**